

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,**  
**CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**



**OZIQA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASINING ILMIY ASOSLARI**  
**FANINING O'QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 800000- Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya

**Ta'lim sohasi:** 810000- Qishloq xo'jaligi

**Mutaxassislik:** 70810402 – O'simlikshunoslik

**Samarqand – 2025**

Fan/modul kodi OTTIAM 2304	O'quv yili 2025-2026	Semestr 4	ECTS – Kreditlar 4
Fan modul turi Tanlov	Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi Oziqa tayyorlash texnologiyasining ilmiy asoslari	Auditoriya mashg'ulotlari (soat) 60	Jami yuklama (soat) 120
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p>Oziqa tayyorlash texnologiyasining ilmiy asoslari ozuqabop o'simliklarining muxim xo'jalik, biologik, ekologik xususiyatlari; tabiiy va maxsuldorligi yaxshilangan o'tloqlardan samarali foydalanish; mol boqishning o'simlik qoplamiga ta'siriga oid turkum masalalarni o'rganish; har bir tip, tabiiy mintaqaga mos yaylovlar maxsuldorligini oshirish; chora- tadbirlarini ishlab chiqish, ulardan samarali foydalanish va masalalarini o'rganish; yaylovlarni suv bilan ta'minlash; sug'orish inshootlaridan samarali foydalanish turkum masalalarini o'rgatish; cho'l mintaqasi ekologik xususiyatiga oid muxim ma'lumotlar bo'yicha nazariy, amaliy bilimlarni uzviylik va uzlulsizlikda o'rganishdan iborat.</p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – magistr ozuqa ekinlaridan yuqori hosil yetishtirishni, ozuqa tayyorlash texnologiyasini, mineral o'g'itlar me'yorlarini hisoblay olish va qo'llashni, sug'orish miqdorini bilishni, hosilni yig'ish va ularni saqlashni, yashil konveyer tizimini tuzishni, almashlab ekish, o'simliklarning yashash sharoiti, begona o'tlar va ularga qarshi kurash choralarini haqida, yaylov, pichanzor o'simliklarining ekologik va biologik xususiyatlari va ko'p yillik o'tlarning urug'chiligi haqida, respublikada keng tarqalgan tuproq tiplari, unumdorligi va meliorativ holatlari talabalarga yetkazish. Mutaxassislariga chorva hayvonlari uchun ozuqa bo'ladigan cho'l - yaylov o'simliklarini tarqalishini, ularning guruhlanishini, yaylov va cho'llarda tarqalgan o'simliklarining biologik va ekologik xususiyatlarini, turli chorva hayvonlari uchun yaylov-cho'l g'alladosh ozuqabob o'simliklarni oziqaviylik qiymatini o'rgatish hamda ularni amaliyotda tadbiriq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. Kirish. Yaylov -cho'l o'simliklarining ahamiyati.</b></p> <p>“Oziqa tayyorlash texnologiyasining ilmiy asoslari” fanning mazmuni, maqsadi, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi, asosiy vazifalari. Yem-xashak ekinlari yetishtirishning resurstejamkor agrotexnologiyalarining maqsadi va vazifalari. Yem-xashak ekinlarining tarqalishi, ekin maydoni, hosildorligi. Yem-</p>		

xashak ekinlarining guruhga bo'linishi. Yem-xashak ekinlarning ahamiyati, olinadigan mahsulot turlari.

**2-mavzu. Qo'ng'irboshli yem-xashak o'tlari ahamiyati. Mastak biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi.**

Ahamiyati, tarqalishi, ekin maydoni, hosildorligi, biologik xususiyati va navlari. Topinambur yetishtirish texnologiyasi: o'tmishdoshi, o'g'itlash tizimi, ekish, ekinlarni parvarishlash, hosilni yig'ish

**3-mavzu. Tabiiy yaylov oziqabop o'simliklari va yetishtirish texnologiyasi**  
Tabiiy yaylovlardan to'g'ri va samarali foydalanish, ularni klassifikatsiyalash, ya'ni, tiplar, tip guruhlari, klasslarga ajratish

Tabiiy yaylov haqida tushuncha, tuproq iqlim sharoiti. keng tekislik, tekislik-tepalik, tog' oldi va tog'li xududlari. Keng maydon dasht mintaqasi. qumli, loyli, sho'rli va efemerli yaylovlar hamda yetishtirish texnologiyalar keng tekislik, tekislik-tepalik, tog' oldi va tog'li, dasht mintaqasi, qumli, loyli, sho'rli va efemerli yaylovlar.

#### **4-mavzu Oziqabop o'simliklar biologiyasi**

Tabiiy pichanzor va yaylovlarda uchraydigan bir yillik, ko'p yillik o'tlar. Yaylov va pichanzorlarda g'allasimon o'tlar, yotib o'suvchi g'allasimon o'tlar, piyozli g'allasimonlar. Dukkakli o'tlar. Tup hosil qiluvchi dukkaklilar, ildiz poya hosil qiluvchi dukkaklilar.

#### **5-mavzu. Triticale ozuqa uchun yetishtirish texnologiyasi**

Chorvachilikdagi ahamiyati, botanik va biologik xususiyatlari, navlari, yetishtirish texnologiyasi - o'tmishdosh, tuproqqa ishlov berish, o'g'itlash tizimi, ekish muddati, urug' ekish me'yori. Ekinlarni parvarish qilish. Hosilni yig'ishtirish uslubii: muddati, qo'llanadigan texnika, donni tozalash va saqlash.

#### **6-mavzu. Xashaki lyupinni ozuqa uchun yetishtirish texnologiyasi**

Lyupin chorvachilikdagi ahamiyati, tarqalishi, hosildorligi. Donning kimyoviy tarkibi. Biologik ahamiyati. Navlari. Asosiy va takroriy ekish texnologiyasi: o'tmishdoshi, o'g'itlash tizimi, sug'orish, ekinni parvarish qilish. Hosilni yig'ish

#### **7-mavzu. Batatni ozuqa uchun yetishtirishda texnologiyasi**

Ahamiyati, tarqalishi, ekin maydoni, hosildorligi, biologik xususiyati va navlari. Batat yetishtirish texnologiyasi: o'tmishdoshi, o'g'itlash tizimi, ekish, ekinlarni parvarishlash, hosilni yig'ish.

#### **8-mavzu. Xashaki sholg'om ozuqa uchun yetishtirishda texnologiyasi**

Ahamiyati, tarqalishi, ekin maydoni, hosildorligi, biologik xususiyati va navlari. Xashaki sholg'om yetishtirish texnologiyasi: o'tmishdoshi, o'g'itlash tizimi, ekish, ekinlarni parvarishlash, hosilni yig'ish.

#### 9-mavzu. Yer nokini ozuqa uchun yetishtirishda texnologiyasi.

Yer noki ildizi, poyasi, barglari, gullari, donni va tuganaklarni tuzilishi. Don va silos tayyorlash uchun yetishtirish texnologiyasi: o'tmishdosh, oziqlantirish, ekish, ekinlarni parvarishlash, hosilni yig'ish. Ekinlarni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkunandalarga qarshi kurashish. Hosilni yig'ish. Uslubi: muddati, kombaynlar, donni tozalash va saqlash

#### 10-mavzu. Xashaki turp yetishtirish texnologiyasi.

Xashaki turpning ildizi, poyasi, barglari, gullari, donni tuzilishi, ildizpoyasini tuzilishi. ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi, ekin maydoni, hosildorligi. Biologiyasi va navlari. xashaki turp yetishtirish texnologiyasi – o'tmishdosh, yerni asosiy ishlash, o'g'itlash tizimi, ekish muddati, ekish uslubi, me'yori, chuqurligi. Ekinlarni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkunandalarga qarshi kurashish

#### 11-mavzu. Poliz ekinlarini yetishtirish texnologiyasi.

Ahamiyati, tarqalishi, hosildorligi. Sistematika. Biologic xususiyatlari va navlari, yetishtirish texnologiyasi: o'tmishdosh tuproqqa ishlov berish, o'g'itlash tizimi, ekish muddati va uslubi, me'yori va chuqurligi. Ekinlarni parvarishlash, hosilni yig'ish, urug'chilik. Ekinlarni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkunandalarga qarshi kurashish. Hosilni yig'ish. Uslubi: muddati, kombaynlar, donni tozalash va saqlash

#### 12-mavzu. Kungaboqar biologiyasi va yetishtirish texnologiya

Moyli ekinlar - xalq xo'jaligidagi ahamiyati umumiy tavsifi, tarkibi, sifat ko'rsatkichlari, guruhlar. Kungaboqar - ahamiyati, tarqalishi, tarixi, hosildorligi, biologiyasi, navlari. Urug' va silos tayyorlash uchun yetishtirish texnologiyasi: o'tmishdosh, yerni asosiy ishlash, o'g'itlash tizimi, ekish muddati, ekish uslubi, me'yori, chuqurligi. Ekinlarni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkunandalarga qarshi kurashish. Hosilni yig'ish. Uslubi: muddati, kombaynlar, urug'ni tozalash va saqlash

#### 13-mavzu. Kuzgi raps o'simligini yetishtirish texnologiyasi

Kuzgi rapsning xalq xo'jaligidagi ahamiyati, ishlatilishi hosildorligi, tarixi. Yetishtirish texnologiyalari – almashlab ekishdagi o'rni, tuproqni ishlash, ekish muddati, ekish me'yori, ekin parvarishi, hosilni yig'ish

SamDVMChBU N.Xalilov, "O'simlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish" kafedrasi professori, qishloq xo'jaligi fanlari doktori. A.J.Omonov, q.x.f.f.d., (PhD) tomonidan tayyorlangan 70810402 –O'simlikshunoslik ta'lim yo'nalishi uchun "Oziqa tayyorlash texnologiyasining ilmiy asoslari" fanidan tayyorlangan o'quv dasturiga

### T A Q R I Z

"Ta'lim" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi qonunlarga mos ravishda qishloq xo'jaligini etuk, malakali va raqobat bardosh mutaxassislar bilan ta'minlash borasida tayyorlanayotgan mutaxassislar yuqori saviyali, nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishlari talab etiladi.

Respublikamiz aholisini chorvo mahsulotiga bo'lgan talabini qondirishda, arzon go'sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarishda mustahkam oziqa bazasini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki chorvo mahsulotlarini yetishtirishga ketadigan xarajalarning asosiy qismini yem-xashak va oziqa xarajatlari tashkil etadi. Ma'lumotlarga ko'ra go'sht mahsulotlari ishlab chiqarishning 60-70 % ini, sutning esa qariyb 55 % ini yem-xashak yetishtirish va jamg'arish xarajatlari tashkil etar ekan. Shu jihatdan ham bo'lg'usi mutaxassislar bu fanni yaxshi bilishlari zarur.

"Oziqa tayyorlash texnologiyasining ilmiy asoslari" fanidan tayyorlangan ushbu dasturda fanning maqsadi va vazifalari; fan bo'yicha talabalarning bilimiga, o'quviga va ko'nikmalariga DTSga muvofiq qo'yiladigan talablar; fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalar; uslubiy ko'rsatmalar; darslik va o'quv qo'llanmalar to'xtatib batafsil bayon etilgan.

Fanni o'rganish bo'yicha mavzular ketma-ketligi to'g'ri qo'yilgan. Bunda don va dukkakli donli ekinlarning oziqaviylik xususiyatlari, ildiz mevali va tuganakmevali yem-xashak ekinlari, yem-xashak o'qlarini yetishtirish texnologiyasi, zararli va zaharli o'simliklar o'rganishga keng o'rin berilgan.

Muallif tomonidan 70810402 –O'simlikshunoslik ta'lim yo'nalishi uchun "Oziqa tayyorlash texnologiyasining ilmiy asoslari" fanidan taqdim etilayotgan ushbu dastur DTS talablariga javob beradi va uni tasdiqlashga hamda o'quv jarayonida qo'llashga tavsiya etilgan.

Samarqand agrobiologiyasi va  
tasdiqlash instituti O'simlikshunoslik  
kafedrasi darsanti q.x.f.f.d.



Z.R.Bobokulov



Sim DVMChBU N.Xalilov, "O'simlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish" kafedrasining professori, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, A.J.Omonov, q.x.f.d., (PhD) tomonidan tayyorlangan 70810402 -O'simlikshunoslik ta'lim yo'nalishi uchun "Oziq-tayyorlash texnologiyasining ilmiy asoslari" fanidan tayyorlangan o'quv dasturiga

## TAQRIZ

"Ta'lim" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi qonunlarga mos ravishda qishloq xo'jaligi etuk, malakali va rasmiyatli mutaxassislar bilan ta'minlash borasida tayyorlanayotgan mutaxassislar yuqori saviyali, nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishlari talab etiladi.

Respublikamiz aholisini chorvo mahsulotiga bo'lgan talabini qondirishda, arzon go'sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarishda mustahkam oziq bazasini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki chorvo mahsulotlarini yetishtirishga ketadigan xarajatlarning asosiy qismini yem-xashak va oziq xarajatlari tashkil etadi. Ma'lumotlarga ko'ra go'sht mahsulotlari ishlab chiqarishning 60-70 % ini, sutning esa qariyb 55 % ini yem-xashak yetishtirish va jang'arish xarajatlari tashkil etar ekan. Shu jihatdan ham bo'lgusi mutaxassislar bu fanni yaxshi bilishlari zarur.

"Oziq-tayyorlash texnologiyasining ilmiy asoslari" fanidan tayyorlangan ushbu dasturda fanning muqaddi va vazifalari; fan bo'yicha talabalarning bilimiga, o'qoviga va ko'nikmalariga DTSga muvofiq qo'yiladigan talablar; fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalar; uslubiy ko'rsatmalar; darslik va o'quv qo'llanmalar to'yatib berilishi bayon etilgan.

Fanni o'rganish bo'yicha mavzular ketma-ketligi to'g'ri qo'yilgan. Bunda don va dukkakli donli ekinlarning oziqaviylik xususiyatlari, ildiz mevali va tuganakmevali yem-xashak ekinlari, yem-xashak o'klarini yetishtirish texnologiyasi, zararli va zaharli o'simliklar o'rganishga keng o'rin berilgan.

Muallif tomonidan 70810402 -O'simlikshunoslik ta'lim yo'nalishi uchun "Oziq-tayyorlash texnologiyasining ilmiy asoslari" fanidan taqdim etilayotgan ushbu dastur DTS talablariga javob beradi va uni tasdiqlashga hamda o'quv jarayonida qo'llashga tavsiya etilgan.

Samarqand agroinovatsiyalar va tadqiqotlar instituti O'simlikshunoslik kafedrasining o'quvchisi q.x.f.d. J.B.Fayzimurodov



14-mavzu. Qashqarbedani ozuqa uchun yetishtirish texnologiyasi  
Qashqarbeda - ahamiyati tarqalishi, hosildorligi, biologik xususiyati, navlari. Sug'oriladigan va takroriy ekin sifatida yetishtirish texnologiyasi

### 15-mavzu. Ozuqabop o'tlar urug'chiligi

O'tlarni ekish, yangidan ekilgan o'tzorlar barpo etish, siyraklashgan o'tzorlarning olasiga ekish uchun ko'p miqdorda urug'lik talab qilinadi. O'tlar urug'larini maxsus urug'chilik xo'jaliklarida yoki har bir xo'jalik o'zi uchun yetishtiradi

## III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Birinchi va ikkinchi guruh donli o'simliklarning morfologiyasi.
2. Bug'doyning ozuqaviylik ahamiyati, sistematikasi va morfologiyasi.
3. Arpaning ozuqaviylik ahamiyati, sistematikasi va morfologiyasi.
4. Javdar va sulining ozuqaviylik ahamiyati sistematikasi va morfologiyasi.
5. Makkajo'xoriining ozuqaviylik ahamiyati sistematikasi va morfologiyasi.
6. Jo'xoriining ozuqaviylik ahamiyati sistematikasi va morfologiyasi.
7. Xashaki don-dukkakli ekinlarning umumiy morfologik xususiyatlari.
8. Xashaki no'xatning ozuqaviylik ahamiyati va morfologiyasi.
9. Soyanning ozuqaviylik ahamiyati va morfologiyasi.
10. Xashaki lyupin morfologiyasi va navlarini o'rganish
11. Xashaki dukkak morfologiyasi va navlarini o'rganish
12. Loviyaning (mosh) sistematikasi va morfologiyasi.
13. Shabdar va bersim sistematikasi va morfologiyasi.
14. Bedaning ozuqaviylik ahamiyati sistematikasi va morfologiyasi.
15. Qashqarbeda ahamiyati va turlarini o'rganish.

## IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

1. Suli va tritikale biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi.
2. Makkajo'xori, jo'xori, kungaboqarni silos uchun yetishtirish texnologiyasi.
3. Oraliq ekinlar yetishtirish texnologik xaritasini tuzish.
4. Takroriy ekinlar yetishtirish texnologik xaritasini tuzish.
5. Bir yillik va ko'p yillik dukkakli yem-xashak o'klari vakillari
6. Bir yillik va ko'p yillik qo'ng'irboshli yem-xashak o'klari vakillari o'rganish
7. Tuproqqa ishlov berishning resurs tejamlar usuli
8. Suv tejoychil resurstejamlar texnologiyalar turlari va ulardan foydalanish.
9. Makkajo'xori biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi.
10. Jo'xori biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi.

	<p>11. Xashaki turp yetishtirish texnologiyasi.</p> <p>12. Xashaki sabzi sistematikasi va morfologiyasi.</p> <p>13. Ildizmevali ekinlarning ahamiyati. Xashaki lavlagi - biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi</p> <p>14. Xashaki sholg'om yetishtirish texnologiyasi</p> <p>15. Kungaboqar va kunjut- biologiyasi va yetishtirish texnologiya</p> <p>16. Xashaki tarvuz morfologiyasi</p>
3.	<p><b>V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</b></p> <p><b>Talaba bilishi kerak:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• tabiiy yaylovlar va pichanzorlar, yashil konveyer tizimini tuzishni, yaylov va pichanzor o'simliklarining ekologik va biologik xususiyatlari, o'tloq o'simliklarning rivojlanishi va hayot qonuniyatlari, bir va ko'p yillik o'tlar, o'tloqlarda uchraydigan zararli va zaharli o'simliklarni farqlash haqida <i>tusavvurga ega bo'lishi; (bilim)</i></li> <li>• tabiiy yaylovlar va pichanzorlarni bir-biridan farqini, ulardan foydalanish hamda yaxshilash usullarini, madaniy yaylovlaov barpo etishni, ularni o'g'itlashni, o'tloqlarda uchraydigan zararli va zaharli o'simliklarga qarshi kurashishni, chorva mollari uchun senaj va pichan tayyorlashni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)</i></li> <li>• muayyan sharoitga dala ekinlarining hosilini rejalashtirish; ekinlar bo'yicha yetishtirish texnologiyasining elementlarini to'g'ri tanlab berish bo'yicha xulosa qilish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka)</i></li> </ul> <p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvofaqqiyatli topshirish.</p>
6.	<p><b>Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mirzayev O.- Yem-xashak yetishtirish. Darslik. T.: Yangi nashr. 2014. 398 bet.</li> <li>2. Maxmudov M.M., Haydarov Q.Q. - Yaylovshunoslik (darslik) Toshkent. 2010. 512 bet.</li> <li>3. S.B.Abbasov – “Cho'llanish muammolari” O'quv qo'llanma, 2019. 457 bet.</li> </ol> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p>

	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021. – 52 bet.</li> <li>2. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va buriyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021. – 36 bet.</li> <li>3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – 416 bet.</li> <li>4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohatlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. Toshkent: "O'zbekiston", 2023. – 398-bet.</li> <li>5. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. Toshkent: "O'zbekiston", 2024. – 481 bet.</li> <li>6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696 son Farmoni.</li> <li>7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-187-son qarori.</li> <li>8. Oripov R., Xalilov N. O'simlikshunoslik (darslik), "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti" Toshkent 2007 y.</li> </ol> <p><b>Axborot manbalari</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a></li> <li>2. <a href="http://www.ziyounet.uz">www.ziyounet.uz</a></li> <li>3. <a href="http://www.veterinariya">www.veterinariya</a></li> </ol>
7.	<p>Fan dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi Kengashning 2025-__avgustdagi __ sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p>
8.	<p><b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b></p> <p>N.Xalilov – SamDVMChBU, "O'simlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish" kafedrasini professori, qishloq xo'jalik fanlari doktori.</p> <p>A.Omonov – SamDVMChBU, "O'simlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish" kafedrasini qishloq xo'jaligi bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD).</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. J.B.Fayzimurodov – Samarqand agroiinovatsiyalar va tadqiqotlar instituti O'simlikshunoslik kafedrasini katta o'qituvchisi, q.x.f.f.d (PhD)</li> <li>2. Z.R.Boboiulov - Samarqand agroiinovatsiyalar va tadqiqotlar instituti O'simlikshunoslik kafedrasini dotsenti, q.x.f.f.d (PhD)</li> </ol>